

MUSIQA MADANIYATI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI

Husenova Dilshoda Husniddin qizi

Chirchiq davlat pedagogika univerisiteti San'atshunoslik fakulteti

Musiqa ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Maxkamova Shoxida Raxmatullayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik fakulteti

Musiqa ta'limi kafedrasida dotsenti

Abdixodirova Go'zal Erali qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Umumiy pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

Toshpo'latov Jasur Baxrom o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika univerisiteti San'atshunoslik fakulteti

Musiqa ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

TEACHER'S PEDAGOGICAL SKILLS IN ORGANIZING MUSIC CULTURE LESSONS

Husenova Dilshoda Husniddin qizi

Chirchik State Pedagogical University, Faculty of Arts, Music

Education, 3rd student level

Abdixodirova Go'zal Erali qizi

Teacher of the Department of General Pedagogy of Chirchik State

Pedagogical University

Toshpo'latov Jasur Baxrom o'g'li

Chirchik State Pedagogical University, Faculty of Arts,

Music Education, 3rd student level

Annotatsiya: Maqolada musiqa madaniyati fani o'qituvchisining o'quv jarayonini barcha bosqichlarida eng qulay va samarali metodlarini tashkil etishi, o'quvchilarning shaxs kamolotini rivojlantirishga yo'naltira olishi, ularning dunyoqarashini shakllantirish, hamda yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirish to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, san'at, musiqa, madaniyat, shaxs, musiqiy savodxonlik, nafosat, badiiy did, milliy g'urur.

KIRISH

Yosh avlodga har tomonlama puxta bilim berish, ularni vatanimizning yetuk kishilari qilib tarbiyalashda maktab muhim rol o'inaidi. Birinchi Prezidentimiz Islom

Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida "...kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha qilib aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishini farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq" 1 deb ta'kidlagan. Darhaqiqat, musiqa o'qituvchisi o'quvchilarga bilim berish, uni shaxs sifatida kamol topib voyaga yetishiga xizmat qilishi bilan birga ularni musiqa olamiga olib kiradi, go'zallikka bo'lgan qiziqishini rivojlantiradi. Chunki, musiqa o'z tabiatiga ko'ra, inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish xususiyati bilan birga o'quvchilarni nafosatga olib kirish va axloqiy, g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir

O'zbekiston Respublikasining taraqqiyoti va istiqbolini ta'minlash iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarda bo'layotgan o'zgarishlarga bog'liq bo'lib, bunday o'zgarishlarda faol ishtirok etish uchun kasbiy soha egalaridan yuqori darajadagi umumiy va maxsus bilimlar, intellektual salohiyat, keng dunyoqarash va axborot kommunikatsiyalaridan ustalik bilan foydalanish malakalariga ega bo'lishlik talab etiladi. Ana shu talablar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimiz, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanib borishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri, bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz". Shuning uchun ham "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" maqsad va vazifalarini amalgam oshirishning birinchi bosqichida "Pedagog va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malskasini oshirishni zamon talablariga javob berdigan darajada tashkil etish" belgilangan. Interaktiv o'qitish usullarning asosiy mohiyati shundan iboratki, dars jarayonida jalb qilingan barcha o'quvchilar o'qishda o'zlarining bilim va fikrlarini tushunishi va muhokama kilish orkali o'zlashtirishi bo'lib hisoblanadi. Asosiy talablardan biri birdamlik, qo'shma fikrlash bo'lib hamda o'quv dasturini o'rganish jarayonida o'quvchilar orasida qo'shma faoliyat o'tkazilib, xar bir o'quvchi o'zining fikri, yangilik, bilim almashish va muammoni yechimini taklif qilish yo'li orqali amalga oshiriladi.

"Musiqa madaniyati" fani dasturida o'quvchiga musiqa ta'limi berish bilan bir qatorda uning ijodkorlik qobiliyatini o'stirish, vokal-xor malakalarini rivojlantirish, musiqani idrok etish, musiqiy savodxonligini boyitish, musiqaga ritmik jo'r bo'lish kabi mahoratlarini oshirish alohida uqtirilgan.

Ma'lumki, musiqa tarbiyasi dastavval umumumta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida amalga oshiriladi. Bunda asosan o'quvchilarning musiqiy idrok doirasi va qiziqishini oshirish bilan musiqiy badiiy didni shakllantirish vazifasi nazarda

tutiladi. Unda musiqaga oid barcha bilimlar, jumladan, xor bo‘lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqaga xos harakatlarni bajarish, bolalar cholg‘u asboblari ritmik jo‘r bo‘lish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishni taqazo etadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun musiqa madaniyati fani o‘qituvchisidan darsni mazmunli, qiziqarli, tushunarli hamda ta’sirchan qilib o‘tishi o‘quvchilarning musiqiy savodxonligini boyitishda u o‘zining musiqiy pedagogik mahoratidan o‘rinli foydalanishni taqazo etadi.

Musiqa fani o‘qituvchisining pedagogik mahoratiga-o‘quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, o‘quvchilarning shaxs kamolotini rivojlantirish maqsadlari tomon yo‘naltira olish, o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish, jamiyat uchun zarur bo‘lgan faoliyatga moyillik uyg‘ota olish kabi asosiy vazifalar kiradi. Pedagogik mahorat darajalari keng qamrovli bo‘lib, musiqa fani o‘qituvchisining ish uslubini davomi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limni demokratlashtirish, individuallashtirish, mintaqaviy xususiyatlarni xisobga olish tamoyillari asosida barcha o‘quv predmetlari qatori jumladan, musiqa predmeti bo‘yicha ham o‘qitish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Musiqa madaniyati o‘quv predmeti o‘quvchilarning ma’naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g‘urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o‘stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ma’lumki, musiqa san’ati maktabgacha tarbiya muassasalarida, bolalar musiqa va san’at maktablari hamda o‘rta umumta’lim maktablarida olib boriladi. Musiqa madaniyati darsi umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan adabiyot, tasviriy san’at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘langan holda olib boriladi. O‘quv rejada ko‘rsatilgan barcha o‘quv fanlari qatori musiqiy ta’limda ham DTSning joriy etilishi milliy musiqiy merosimiz manbalaridan to‘la qonli foydalanish imkonini beradi. Milliy musiqiy merosimiz san’ati yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo‘lib yetishlarida o‘ziga xos va takrorlanmas manba bo‘lib xizmat qiladi.

Musiqa madaniyati fani o‘qituvchisi darsni qiziqarli, samarali, mazmunli olib borish bilan bir qatorda o‘quvchilarni ma’naviy, badiiy va shu bilan birga ahloqiy madaniyatni shakllantirish mahoratiga, shuningdek, milliy g‘urur hamda vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish kabi ijodiy mahoratga ham ega bo‘lishi kerak.

Musiqa madaniyati fani o‘qituvchisining pedagogik mahoratlarining muhim jihatlaridan biri shundaki, u eng avval, ta’lim-tarbiya sohasida olgan bilimlarini o‘quvchilarga mukammal o‘rgatishi lozim. Bu albatta musiqiy ta’lim-tarbiya sohasidagi ko‘pgina muammolarni hal etishda yaqindan yordam beradi.

Musiqa fani o‘qituvchisi o‘quv tarbiya ishlarini olib borish bilan birga u o‘z fanini yaxshi va chuqur bilishi, o‘quvchilarni musiqa san’ati olamiga olib kirishda alohida

e'tibor qaratib, ularning dunyoqarashi, fikrlashi, musiqa sohasidagi bilimlar doirasini boyitib borishi ham muhim ahamiyatga egadir. O'qituvchi eng avvalo musiqa inson hissiyotini, ayniqsa, emotsional estetik hissiyotni faol rivojlantira olishini unutmashligi kerak.

Musiqa o'qituvchisi musiqa cholg'usida yaxshi chalish malakasiga ega bo'lishi, qo'shiqni chiroyli va yoqimli kuylash ovozigaga ega bo'lishi, musiqa asarini notaga qarab yaxshi ijro qilishi, o'quvchilar qobiliyatini, bilim saviyasini, ularning ijrochilik mahoratini bir-biridan ajrata olishi kerak. Musiqa o'qituvchisining musiqa asbobida asarni mohirlik bilan ijro etishi o'quvchilarga juda katta ta'asurot uyg'otadi. Chunki musiqa cholg'u asbobida kuyni jonli ijro etib o'z tarbiyalanuvchilariga musiqani qiziqarliligini va hayotda eng muhimligini amaliy jihatdan ko'rsatib beradi.

Musiqa o'qituvchisi cholg'u asbobida musiqa asarini mohirlik bilan ijro etishi, qo'shiqni yoqimli kuylashi, dirijorlik hatti-harakatlarini yaxshi bilishi, musiqiy savodxonligini mukammal bilmog'i bilan birga ijod qilish mahoratiga ham ega bo'lishi lozimdir. Chunki, o'qituvchining dars berish mahorati, shaxsiy namunasi va bilim darajasi o'quvchilarning musiqa fanidan olgan bilimlari taqdirini hal qiladi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, musiqa madaniyati darsida o'qituvchining mahorati har tomonlama yuksak darajada bo'lishi o'ta muhim hisoblanadi. Uning asar haqidagi kirish so'zi va dars mavzusini tushuntirib berishi, o'quvchilarni ajoyib va sehrli musiqa san'ati olamiga olib kirib, badiiy hamda ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi.

REFERENCES

1. I. Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Ma'naviyat nashriyoti Toshkent 2016.
2. Kushaev, I. A. (2020). Musical pedagogical fundamentals of doston art. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(10), 1061-1067.
3. Kushaev, I. A. (2020). MUSIC PEDAGOGICAL DOLLARS OF DOSTON ART. *International Engineering Journal For Research & Development*, 5(9), 6-6.
4. Kushaev, I. A. (2020). BAKHSI ART SCHOOLS AND THEIR PERFORMING FEATURES. *Scientific reports of Bukhara State University*, 3(3), 295-299.
5. Кушаев, И. А., & Ахтамов, И. И. (2020). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТРАДИЦИОННОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МУЗЫКИ (НА ПРИМЕРЕ ИСКУССТВА ДАСТАНА). *Academy*, (11 (62)).
6. Каримов, О. И. (2020). Значение специфических особенностей и воспитательных возможностей узбекских народных инструментов. *Academy*, (3 (54)).

7. Каримов, О. И. (2020). ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ВЗГЛЯДЫ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ МУЗЫКИ. Вестник науки и образования, (22-2 (100)).

8. Yarashev, J. T. (2013). “Bukhorcha” and “Mavrigi” song classes—as a national and noetic spiritual values of the Uzbek nation. ТРАДИЦИОННАЯ И СОВРЕМЕННАЯ КУЛЬТУРА: ИСТОРИЯ, АКТУАЛЬНОЕ ПОЛОЖЕНИЕ, ПЕРСПЕКТИВЫ, 114.

9. Yarashev, J. T. (2019). Research on Bukhara music heritage through axiologic features. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

10. Дустов, С. (2021). ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАРОДНЫХ ПЕСЕН. Проблемы науки, 40.

11. Дустов, С. Д. (2020). ВЛИЯНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ НА МУЗЫКАЛЬНО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ. Academy, (11 (62)).

1. Rakhmatov, N. E. (2020). Problems of Creative Approach in The Pedagogical Activity of Future Music Teachers. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(09), 659-664.